

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No'monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamova	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
M.A.Matmusayeva	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
U.Xolova	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
A.M.To'rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni	418
Y.M.Namozova	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida	423



УО'К: 1(091):14(5).

**FALSAFAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOT BOSQICHIDA MA'RIFAT DAVRINING
BOSHLANISHI. SHARQ FALSAFASIDA MA'RIFAT VA MA'RIFATPARVARLIK HARAKATLARI
(«AVESTO» MISOLIDA)**

**НАЧАЛО ЭПОХИ ЗНАНИЙ В СТАДИИ РАЗВИТИЯ ФИЛОСОФСКОГО МЫШЛЕНИЯ:
ДВИЖЕНИЯ ЗНАНИЯ И ПРОСВЕЩЕНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ (НА ПРИМЕРЕ
'АВЕСТЫ')**

**THE BEGINNING OF THE AGE OF KNOWLEDGE IN THE DEVELOPMENT STAGE OF
PHILOSOPHICAL THINKING: KNOWLEDGE AND ENLIGHTENMENT MOVEMENTS IN
EASTERN PHILOSOPHY (EXEMPLIFIED BY THE 'AVESTA')**

Xolova Umida 
Buxoro davlat universiteti, tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ma'rifat davri, ma'rifatga berilgan turli xil ta'riflar bilan bir qatorda ma'rifatparvarlik davrining o'ziga xos xususiyatlari, ma'rifatparvarlarning ijtimoiy – siyosiy g'oyalari tahlil etilgan. Shu qatorda Sharq falsafasida ma'rifat davrining dastlabki shakllanish bosqichi bo'lgan Avestodagi ma'rifat masalalari ham tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется эпоха просвещения, различные определения просвещения, характерные особенности периода просвещения и социально-политические идеи просветителей. Кроме того, рассматриваются вопросы знания, обсуждаемые в 'Авесте', которая представляет собой начальную стадию формирования эпохи знаний в восточной философии.

Abstract

This article analyzes the Age of Enlightenment, various definitions of enlightenment, the distinctive characteristics of the enlightenment period, and the socio-political ideas of the enlighteners. Additionally, it examines the issues of knowledge as discussed in the 'Avesta,' which represents the initial stage of the formation of the Age of Knowledge in Eastern philosophy.

Kalit so'zlar: Ma'rifat, ma'rifatparvarlik, aql – idrok, Avesto, ta'lim, tafakkur, g'oya, gumanizm, ijtimoiy shartnoma, mukammal jamiyat, qonunlar.

Ключевые слова: просвещение, движения просвещения, разум, 'Авеста', образование, мышление, идеи, гуманизм, социальный контракт, идеальное общество, законы.

Key words: enlightenment, enlightenment movements, reason, 'Avesta', education, thinking, ideas, humanism, social contract, perfect society, laws.

KIRISH

Falsafiy taraqqiyot bosqichlarida ma'rifat davri alohida ahamiyatga molik bo'lib, ma'rifat tushunchasiga turli xil ta'riflar berilgan. Umumiylidka berilgan ta'riflarning mohiyatida bilim va ta'llimning tarqalishi xususidagi g'oyalar asosiy o'rinn tutadi. XIV-XVII asrlar insonparvarlik g'oyalari va qadriyatlarning qaror topib, inson va uning faoliyatiga qiziqish uyg'ongan so'nggi Uyg'onish davri hisoblanadi. XVIII asr "Ma'rifat" davri deb nomlanib bu davr arboblari - ma'rifatparvarlari esa haqli ravishda gumanistlarga o'xshatiladi. Gumanistlar kabi ma'rifatparvarlar ham qadimgi bilimlarni o'rganishga insonni ulug'lashga harakat qiladilar. Ularning qarashalrida o'zaro aloqadorlik va farqlar ham ko'zga tashlanadi. Ma'rifatparvarlik tafakkurining markazida aql-idrokdan foydalanish va insonlarning ma'nnaviy olamni tushunishga uning intilish g'oyalari ustuvorlik qiladi. Aqli insoniyatning maqsadlarining asosini bilim, erkinlik va baxt tashkil qilishi borasidagi fikrlar ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

XVII-XVIII asr oxirlarida ilmiy bilimlarning tarqalishi va inson erkinligi g'oyasi Ma'rifat deb atala boshladi. Nemis faylasufi Immanuel Kant (1724-1804 y) ma'rifatni insonning voyaga yetmaganlik holatidan chiqishi deb ta'riflaydi. [1. 29] Uning fikriga ko'ra, boshqa birovning yo'l-yo'rig'isiz o'z aqlini mustaqil ishlatish qobiliyatining yetishmasligidan chiqishdan iborat edi. Kant qarashlarida ma'rifat uchun faqat erkinlik va har qanday holatda ham o'z aql-idrokidan ommaviy foydalanish mumkin bo'lgan erkinlik talab qilinadi. Shuningdek, ommaning o'zi shunday erkinlik bilan o'zini o'zi ma'rifatli qilishi mumkin, deb hisoblaydi. Ma'rifat uchun faqat erkinlik, ya'ni barcha hollarda o'z aql-idrokidan ommaviy foydalanish erkinligi talab qilinadi. Gegel ma'rifatchilikni XVIII asrdagi madaniy va ma'naviy hayot sohasidagiratsionalistik harakat mavjud boshqaruva usulini, davlat tuzumini, siyosiy mafkurani, huquqni va sud ishlarini yuritishni, dinni, san'at, axloq tizimlarini takomillashtirish deya ta'riflagan. [2.34]. Kant singari Gegel ham ma'rifatchilikning eng xarakterli xususiyati inson qadrini qaror toptirish ekanligini e'tirof etadi [3.440].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga oid tarixiy manbalar ustida ishlash, tarixiylik, matiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, qo'lyozma manbalarni tarjima qilish uslublaridan foydalanildi.

TALQIN VA NATIJALAR

G'arb olimlarining qarashlariga ko'ra, «Ma'rifat» ning vatani Fransiya bo'lib, bu yerda ma'rifatparvarlik dunyoqarashining shakllanishiga e'tibor qaratilgan. Ma'rifat falsafasining asosiy muammolari: inson va davlat, inson va axloq, inson va Xudoni tushunish, inson va tabiat munosabatlarini anglashdan iborat edi. Ma'rifatchilik ta'limotining asoschisi D.Lokk (1632-1704-y) va uning izdoshlari G.Bolingbrok (1678-1751-y), D.Addison (1672-1719-y), A.E.Sheetsberi (1671-1713-y), F.Xatcheson (1694-1747-y) asarlarida «umumiyy ne'mat» «tabiiy inson», «tabiiy huquq» «tabiiy din» «ijtimoiy shartnoma» kabi asosiy tushunchalar shakllantirilgan. D.Lokknинг «Davlat boshqaruvi haqida ikki risola» (1690y) da bayon etilgan tabiiy huquq ta'limotida insonning asosiy huquqlari: erkinlik, tenglik, shaxs va mulkning daxlsizligi tabiiy, abadiy va ajralmas ekanligi asoslangan. Shu jihatdan, ma'rifatparvarlik davrining quyidagi asosiy g'oyalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ta'lim jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega;
2. Har bir inson qonun oldida teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishi kerak;
3. Ma'rifatparvarlar mukammal jamiyat qurishga va uning uyg'un rivojlanishiga ishonganlar;
4. Aql ustunligi g'oyasi: ma'rifatparvarlar butun jamiyat, tabiat va koinot muayyan qonuniyatlar asosida boshqarilishiga ishonganlar;
5. Insonning cheksiz imkoniyatlari va qudratiga ishonchnaganlar;

Ma'rifatchilik kengroq tushuncha bo'lib, u o'z navbatida uning tarkibiy qismi bo'lgan ma'rifatning o'zini ham o'z ichiga oladi [4.35].

Sharq falsafasida ma'rifatning boshlang'ich nuqtasini biz jahon sivilizatsiyasiga tamal toshini qo'ygan, jahon madaniyatining noyob yodgorligi "Avesto" kitobisiz tasavvur qila olmaymiz. «Avesto» - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarmi o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonni kamolotga erishuviga mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag'trikenglik kabi sifatlamining ahamiyati chuqur ifodalangan. Zardushtiylikda ham aynan ta'lim olishga va yoshlarni boshlang'ich ta'limiga alohida e'tibor qaratilgan.

«Avesto»da inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgan.[5.1147]. Mazkur asar g'oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim malumotlarga ega bo'lish mumkin. «Avesto» diniy xarakterga ega bo'lish bilan birga, o'zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan. Zardushtiylik dinining g'oyalari xususida so'z borganda, ularning to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Movarounnahr, Eron va Xurosonda yagona Yaratuvchiga e'tiqod qilishga asoslangan zardushtiylik dini qabul qilingandan so'ng, shahar va qishloqlarda maxsus ibodatxonalar - Ahura Mazda ga ibodat qilish uchun mehrobli otashkadalar quriladigan bo'ldi. Professor Isa Jabborovning yozishicha, arxeologik tadqiqotlar davomida topilgan ibodatxonalar S.P.Tolstov rahbarligida Xorazmdagi Tuproqqa'l'a va Janbasqa'l'a xarobalarida o'tkazilgan qazish bir nechta binolardan iborat bo'lib, binolarning markazida to'g'ri burchakli bino, atrofi bir necha devor bilan o'ralgan.

Xonalardan ma'muriy-xo'jalik faoliyatiga oid 140 ta hujjat topildi. Bu yerda ko'p nusxada alohida kitoblar ko'chirilgan va Zardushtga bag'ishlangan qasidalar saqlangan, kitobdorlar (kitob saqlovchilar) o'z faoliyatini amalga oshirgan. Madrasa tipidagi ta'lif muassasalari va otashkaddagi asosiy maktablar zardushtiylik ta'lif tizimining bir qismi bo'lib ta'lif jarayonida dunyoviy bilimlarga bag'ishlangan kitoblar bilan bir qatorda «Avesto», ijtimoiy, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarning qo'lyozmalari han o'qitilgan.

Boshlang'ich ta'lifda asosiy manbalar sifatida quyidagi kitoblar xizmat qilgan:

1. 54 bo'limdan iborat bo'lgan nikadum nask (Nikadum). Unda adolat, haqqoniylig, xalqning haq-huquqlari, boshqaruv usullari to'g'risida fiklar bildirilgan.
2. Kitradad (Kitradad) - insoniyat tarixi, shahanshohlar sulolasasi tarixi to'g'risida;
3. Xusporam - dehqon va chorvadorlarning huquqlari haqida;
4. Tahorat - poklanish, tahorat olish (namozdan oldin) tartibi haqidagi vendidod, dafn, dori-darmon va tabiblik burchi to'g'risida;
5. Xoduxn nask - o'limdan keyingi hayot, jannat va do'zax haqida;
6. Spend (Spend) – Zardushtning hayoti va faoliyati haqidagi kitob.

«Avesto»da ta'lif tizimining turli bosqichlarida kitob o'qishning afzalligi haqida «qalb bilan o'qigan kishiga poklik va oqillik bag'ishlaydi» deyiladi. Bu dalil zardushtiylikda ilm – fanning muhim ahamiyatga ega ekanligi bunga esa kitob o'qish orqali erishish mumkinligi alohida ta'kidlangan. Zardushtiylikda boshlang'ich ta'lif ta'lifning asosiy bo'g'inini tashkil etgan hamda 7 yildan 15 yilgacha bo'lgan davni qamrab oldi. Zardushtiylik qonunlariga ko'ra yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni tizimli ravishda o'qitishmas, balki faqat ma'lum bilimlar bilan tanishtirishardi. Bu yoshgacha bo'lgan bolalar gunoh va ta'sirlardan yiroq deb hisoblangan. Madrasa ta'lifida yetti asosiy yo'naliш o'qitilgan. «Avesto»da ta'kidlanganidek o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar ta'lif-tarbiyasiga jiddiyroq e'tibor berilgan. Chunki ular tug'ilgan xonadonida ota-onasi ro'zg'orini tartibga solib, ziynat berib yurishgan bo'lsa, keyinchalik jufti haloli uyiga borgach, bolalar tarbiyasi va ta'lifi bilan mashhg'ul bo'lmoglari lozim edi [6.61].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, eramizdan oldingi yettinchi asrning oxiri va oltinchi asrning birinchi choragida yaratilgan Turonu Eron xalqlarining mushtarak eng ko'hna yozma yodgorligi «Avesto»da ta'lif-tarbiyaning ayrim jihatlari haqida qiziqarli dalillar mavjud. Xususan, ta'lifning amaliy jihatlari, ustozning yosh avlod tarbiyasi, jamiyat oldidagi burchi, mas'uliyati haqidagi mulohazalar hozir ham o'z qimmatini yo'qotgan emas, Zardushtiyarning ta'lif tizimi, «Avesto»dagi ajdodlarimizning pedagogik g'oyalari, «Bundaxshii» hamda «Dinkard»dagi bevosita ta'lif-tarbiyaga doir mulohazalar, ustozning shogirdga, donishmandning yoshlarga pandlari sifatida bo'limlar maxsus o'rganish va tahlil etishni talab qiladi. [7.45]

«Avesto»dagi o'git-nasihatlar shuni ko'rsatadiki, qadimgi ajdodlarimiz nafaqat sog'lom avlod tug'ilishi haqida g'amxo'rlik qildi, balki uning jismoniy holatiga jiddiy e'tibor qaratishgan hamda ilm-fanni o'rganishi uchun g'amxo'rlik qilishni, yoshlarga bilim olishi uchun yaxshi sharoit yaratib berish kerakligini ham targ'ib qilishgan. Yosh avlodni ilmli qilib, tarbiyalash esa ayni paytda jamiyatni taraqqiy ettirish vosita sifatida ko'rilmanni o'sha davr nuqtayi nazaridan ma'rifatni dastlabki shakllanish bosqichi sifatida qaraladi.

Umuman olganda, g'arbda ma'rifat va ma'rifatchilik g'oyalari, shuningdek Sharqda igari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyalarda umumiylig va o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi. Har ikkala mintaqada shakllangan ma'rifatparvarlik avvalo insonni erki, uning bilimi, duyon anglashi, haqni tanishi xususidagi qarashlar insonni o'zlikni anglashiga undashi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Ma'rifat har bir davrda mazmunan o'zgarsada mohiyatani o'zgarmagan insonni soxta bilimlardan haqiqiy bilimlarni ajratib olishda xizmat qilgan. Insonning insonga bo'lgan zulmidan qutqarib uning o'z zotiga bo'lagan hurmatini o'rniga qo'yishni o'rgatgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И. Кант. Ответ на вопрос: Что такое просвещение ? 1784. Кант, Иммануил. Собр.соч. в 8 тт. М.: Чоро, 1994. Т. 8. С. 29
2. Д.Ш. Цырендоржиева, А.Ц. Батуева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты Вестник бурятского государственного университета 14/2013 С. 34
3. Г.В.Ф.Гегель. Лекции по истории философии. Санкт-петербург .Наука.,2000. С.440

ILMIY AXBOROT

4. Д.Ш. Цырендоржиева, А.Ц. Батуева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты Вестник бурятского государственного университета 14/2013. С. 35
5. Raxmonova M. «Avesto»da ta'lim – tarbiyaga oid fikrlar. Scientific progress. № 4. В.1147
6. Бобоев Х.. Дүстжонов Т., Ҳасанов С., Олламов Я. "Авесто" ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. - Урганч: "Хоразм", 2002. В.61
7. Ҳомидов Ҳ.«Авесто» файллари / Илмий муҳаррир: Н. Комилов. - Т.: А. Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашр., 2001.В.45